

**QAYDNOMA №11**  
**2022 yil 25 may kuni soat 14:00 da o'tkaziladigan**  
**ToshPTI Ilmiy Kengashining**

**QAROR LOYIHASI:**

**Kun tartibi:**

1. 2022-2023 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash, 2022 yil 20 mayda tibbiyot OTMLari Rektorlar rayosatida muhokama qilingan masalalar to'g'risida.

**Ma'ruzachi: ToshPTI O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., dotsent Q.N. Xaitov.**

2. 2021-2022 o'quv yilida institutda amalga oshirilgan ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha hisobot hamda yangi o'quv yilida amalga oshiriladigan vazifalar to'g'risida.

**Ma'ruzachi: ToshPTI Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor M.A.Axmedova.**

3. Oliy hamshiralik ishi fakultetida talabalarning o'zlashtirish, davomati holati, amaliy ko'nikmalarni egallash va mustaqil ishi masalalarining holati va istiqboli rejalarini to'g'risida.

**Ma'ruzachi: ToshPTI Oliy hamshiralik ishi bo'limi boshlig'i, t.f.n., dotsent Sh.T. Muxamedxanova.**

4. Institut xotin-qizlar masalalari bo'yicha Kengashining faoliyati, amalga oshirilgan ishlari va vazifalari xususida.

**Ma'ruzachi: Institut xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi, p.f.n., dotsent D.A.Usta-Azizova.**

5. ToshPTIda ijro intizomi holati. Fuqarolarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalar tahlili to'g'risida.

**Ma'ruzachi: ToshPTI Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i, t.f.d., professor Sh.I. Ruziyev.**

6. Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash.

1. Narbayev Temur Turayevich - Fakultet bolalar xirurgiyasi kafedrasini dotsenti lavozimiga;

2. Tashpulatova Fotima Kudratovna - Yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari, ftiziatriya va pulmonologiya kafedrasini dotsenti lavozimiga;

3. Shaislamova Gavxar Salaxovna - Fakultet pediatriya kafedrasini dotsenti lavozimiga.

**Ma'ruzachi: Saylov komissiyasi raisi.**

7. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

**Ma'ruzachi: Ilmiy Kengash kotibi.**

8. Turli masalalar.

## **Ko'rib chiqildi:**

**Birinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., dotsent Q.N. Xaitov. 2022-2023 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash, 2022 yil 20 mayda tibbiyot OTMlari Rektorlar rayosatida muhokama qilingan masalalar to'g'risida.

### **1 - masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., dotsent Q.N. Xaitov. 2022-2023 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash, 2022 yil 20 mayda tibbiyot OTMlari Rektorlar rayosatida muhokama qilingan masalalar to'g'risida:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son qarorida belgilangan vazifalar, o'quv jarayonini kredit-modul tizimi bo'yicha tashkil etish masalalari muhokama qilinib, 2022/2023 o'quv yilidan boshlab tibbiyot oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida 1 kredit – 30 soat etib belgilash, o'quv rejada har bir fan bo'yicha umumiy soatlarning 50% auditor va 50% mustaqil ishga ajratish;

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari orasida talabalar o'qishini ko'chirish va akademik mobillik dasturlarini amalga oshirish maqsadida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha har bir kurs kesimida fanlarning bir xil bo'lishini ta'minlash;

Har bir tibbiyot oliy ta'lim muassasasining mavjud asosiy strategik hamkor xorijiy tibbiyot oliy ta'lim muassasasining o'quv reja va fan dasturlarini o'rganib chiqib, o'quv reja va fan dasturlarini qayta ko'rib chiqish hamda 2022/2023 o'quv yilidan ta'lim jarayoniga kiritish;

Mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, ularda o'qitish davomiyligini mavjud holatda belgilash;

2022/2023 o'quv yilida tibbiyot texnikumlarini "a'lo" bahoga bitirayotgan bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishni davom ettirish istagini bildirgan talabgorlarni yakuniy davlat attestatsiyasi davrida Davlat test markazi tomonidan pullik shartnoma asosida "biologiya" va "ximiya" fanlaridan imtihon topshirishlari, Davlat test markazi tomonidan ularga to'plagan ballari ko'rsatilgan Sertifikatlarni taqdim etilishini ta'minlash. 2023/2024 o'quv yiliga tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tibbiyot texnikumlari bitiruvchilarini 2-kursdan qabul qilish uchun "Oliy hamshiralik ishi" ta'lim yo'nalishiga kvotalarni tasdiqlash, texnikum bitiruvchilari tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va Davlat test markazi Sertifikatida ko'rsatilgan ballni asos sifatida qo'llab, eng yuqori ball to'plagan bitiruvchilarni ajratilgan kvotaga mos ravishda o'qishga qabul qilish;

Tibbiyot oliy ta'lim yo'nalishlarining 1-kursida beriladigan fanlarini tibbiyot texnikumlarining 3-kurs o'quv reja va fan dasturlariga kiritish;

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining klinikagacha fanlardan "Davolash ishi", "Pediatriya ishi" va "Stomalogiya" ta'lim yo'nalishlarida 5-semestrdan keyin klinikagacha fanlardan integrallashgan imtihon o'tkazish;

Bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasini har bir tibbiyot oliy ta'lim muassasasida yagona platforma asosida amaliy ko'nikmalar (Simulyatsiya markazlarida) hamda nazariy (test, OSKI, og'zaki) bilimlarni baholash orqali o'tkazish;

Har bir tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida oilaviy shifokorlar va tor mutaxassislarning malaka oshirish tizimini yaratish, malaka oshirish fakulteti va kafedralarini tashkil etish;

2022/2023 o'quv yilida akademik mustaqillik berilgan tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha to'lov-kontrakt asosidagi qabul kvotalarini mustaqil aniqlash amda OTM Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlash. 2022/2023 o'quv yilida tibbiyot oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinadigan abituriyentlarning (1-kurs) to'lov-kontrakt miqdorlarini bazaviy to'lov-kontrakt miqdoriga nisbatan 1,8 barobardan ko'p bo'lmagan miqdorda belgilash;

Har bir tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy imkoniyatdan kelib chiqib ta'lim tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda raqamli ta'lim platformalarini yaratish va joriy etish;

2022/2023 o'quv yilidan tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida "Oliy hamshiralik ishi" ta'lim yo'nalishi hamdan unga mos keluvchi magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qabulni tashkil etish.

**Ikkinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Yoshlar bilan ishlash, bo'yicha prorektor M.A. Axmedova. 2021-2022 o'quv yilida institutda amalga oshirilgan ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha hisobot hamda yangi o'quv yilida amalga oshiriladigan vazifalar to'g'risida.

## **2 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Yoshlar bilan ishlash, bo'yicha prorektor M.A. Axmedova. 2021-2022 o'quv yilida institutda amalga oshirilgan ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha hisobot hamda yangi o'quv yilida amalga oshiriladigan vazifalar to'g'risida:

2021-2022 o'quv yilda yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat yo'nalishida amalga oshirilgan ishlash hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin;

2022-2023 o'quv yilida amalga oshirilish kerak bo'lgan vazifalar amalga oshirilishi belgilangan mas'ullar tomonidan tizimli yo'lga qo'yilishi Yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori tomonidan tizimli yo'lga qo'yilishi ta'minlansin.

**Uchinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Oliy hamshiralik ishi bo'limi boshlig'i, t.f.n., dotsent Sh.T. Muxamedxanova. Oliy hamshiralik ishi fakultetida talabalarning o'zlashtirish, davomati holati, amaliy ko'nikmalarni egallash va mustaqil ishi masalalarining holati va istiqboli rejalari to'g'risida.

### **3 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Oliy hamshiralik ishi bo'limi boshlig'i, t.f.n., dotsent Sh.T. Muxamedxanova. Oliy hamshiralik ishi fakultetida talabalarning o'zlashtirish, davomati holati, amaliy ko'nikmalarni egallash va mustaqil ishi masalalarining holati va istiqboli rejalari to'g'risida:

Klinik kafedralarga shtat taqsimoti imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda, vakant o'rinlar mavjudligida OXI yo'nalishiga dars berish uchun Oliy ma'lumotli xamshiralarni jalb etish;

Anesteziologiya va reanimatologiya, Xirurgik kasalliklar, Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi, Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni tashkillashtirish kafedralarida OXI yo'nalishining 3 kursida o'tiladigan mutaxassislik fanlarini o'qitish uchun o'quv-uslubiy xujjatlarni va klinik darslarni o'tish uchun kerakli sharoitlarni tayyorlash;

Klinik fanlarda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish.

**Turtinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi Institut xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi, p.f.n., dotsent D.A.Usta-Azizova. Institut xotin-qizlar masalalari bo'yicha Kengashining faoliyati, amalga oshirilgan ishlari va vazifalari xususida.

### **4 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

Institut xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi, p.f.n., dotsent D.A.Usta-Azizova. Institut xotin-qizlar masalalari bo'yicha Kengashining faoliyati, amalga oshirilgan ishlari va vazifalari xususida:

2021-2022 o'quv yilida institut Xotin-qizlar masalalari bo'yicha kengashining faoliyati, amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin;

2022-2023 o'quv yilida amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar belgilangan mas'ullar tomonidan tizimli yo'lga qo'yilishi Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi tomonidan tizimli yo'lga qo'yilishi ta'minlansin.

**Beshinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i, t.f.d., professor Sh.I. Ruziyev. ToshPTIda ijro intizomi holati. Fuqarolarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalar tahlili to'g'risida.

### **5 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i, t.f.d., professor Sh.I. Ruziyev. ToshPTIda ijro intizomi holati. Fuqarolarning murojaatlarida ko'tarilgan masalalar tahlili to'g'risida ma'lumot axborot va ijro uchun qabul qilindi.

**Oltinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi Saylov komissiyasi raisi V.K. Abdullaeva "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisobot berib o'tdilar.

**6 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

Saylov komissiyasi raisi V.K. Abdullaeva "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**Yettinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI Ilmiy Kengash kotibi tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy tavsiyanomalarni o'qib eshittirdi. Ularning muhokamasi bo'lib o'tdi.

**7 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Ilmiy Kengash a'zolari tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya va uslubiy tavsiyanomalar ovozga qo'yildi va bir ovozdan keyingi bosqichga tavsiya etildi.

**8. Turli masalalar.**

**Kengash raisi**  
**t.f.d., professor:**



**B.T. Daminov**

**Kengash kotibi**  
**t.f.d., dotsent:**

**J.B. Sattarov**